

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**



“TASDIQLAYMAN”

Toshkent to‘qimachilik va
yengil sanoat instituti rektori

D.Vaxabov

“ 26 ” 06 2023 yil

**60210400 – “Dizayn (poyabzal va aksessuarlar dizayni)”
ta‘lim yo‘nalishi uchun**

**IJODIY IMTIHON
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

Toshkent-2023

Dastur Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti (TTYeSI) o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan (2023 yil "___" ____, ___ - sonli majlis bayoni).

Tuzuvchilar:

TTYeSI "Charm buyumlarini konstruksiyalash va texnologiyasi" kafedrasida professori, t.f.d. N.B.Mirzayev

TTYeSI "Charm buyumlarini konstruksiyalash va texnologiyasi" kafedrasida mudiri D.Z.Pazilova

TTYeSI "Kostyum dizayni" kafedrasida dotsenti R.Ahmedov

Taqrizchi:

K.Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn instituti (MRDI) "Libos dizayni" kafedrasida mudiri U.M.Xodjayeva

KIRISH

O‘zbekistonda charm-poyabzal sanoati moda industriyasini rivojlanishi, kichik va o‘rta biznesining davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishi, yuqori sifatli eksklyuziv va dizayn mahsulotlariga talabni ortishi, dizaynerlar faoliyatiga cheksiz imkoniyatlar beruvchi charm mahsulotlari va aksessuarlarning yangi avlodining paydo bo‘lishi – bularning barchasi yetuk mutaxassislar tayyorlashni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, an’anaviy liboslar, ularning tarixi va bezaklariga alohida e’tibor berilmoqda. Mamlakatimizda ibratli an’ana va qadriyatlarimizni asrab avaylash, madaniyatimiz va ta’limimizni tobora rivojlantirish yo‘lidagi ezgu sa’y-harakatlar yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning badiiy did va tafakkurini to‘g‘ri shakllantirishga xizmat qiladi.

Respublikamizda badiiy ta’lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, sohalar bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek, iqtidorli, ijodkor mutaxassis ko‘nikmalarini o‘zida namoyon etuvchi va sohaga qiziqish uyg‘ota oluvchi, o‘z yo‘nalishi va uslubini topishda, ayniqsa badiiy loyihani yechimi, poyabzal va aksessuarlar kompozitsiyasini mazmun va mohiyati jihatidan mukammalligi uchun muhim bo‘lib, ijodiy tassavurni, obrazli-konstruktiv taffakur va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini aniqlashda, hamda malakali dizaynerlar tayyorlash uchun “Chizmatasvir” va “Kompozitsiya” fan sifatida zaruriyati juda katta.

60210400 – “Dizayn (poyabzal va aksessuarlar dizayni)” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi o‘rta maxsus va kasb-hunar kollejaridagi dizayn fani dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. 60210400 – “Dizayn (poyabzal va aksessuarlar dizayni)” ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar ijodiy imtihonda **“Chizmatasvir”** va **“Kompozitsiya”** fanidan amaliy ish bajaradilar. Bajarilgan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Jami ball	Jumladan:	
	“Chizmatasvir” fanidan	“Kompozitsiya” fanidan
156	93	63

FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Kostyumni yaratish – bu kiyimning xilma xil shakl va konstruktsiyalarini doimo izlash jarayonidir, liboslar eskizlarini ishlash va loyihani materialda bajarishgacha bo‘lgan bir necha bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Chizmatasvir – barcha tasviriy ta’lim turlarining (rangtasvir, dekorativ amaliy ta’lim, grafika, haykaltaroshlik va hokazolar) asosi hisoblanadi. “Chizmatasvir” fani “Dizayn” ta’lim yo‘nalishidagi talabalar uchun asosiy vazifasini o‘tab, ularda badiiy didlarini oshirishda muhim o‘rinni egallaydi.

Abituriyentning quyidagi bilimlarini va qobiliyatini aniqlashdan iborat:

- shakl va hajmni tahliliy idrok qilish va anglash qobiliyati;
- fazoviy va konstruktiv idrok etish mahorati;
- shaxsiy mualliflikdagi grafika ishi.

Vazifani bajarishda abituriyent quyidagilarni bilishi kerak:

- qog'oz yuzasiga qo'yilmani konstruktiv to'g'ri joylashtirish;
- tasvirlanayotgan qo'yilmani nisbatlarini to'g'ri aniqlash va hajm chiqarish yechimlarini ifodalay olish.

Kompozitsiya – barcha ta'lim turlarini asosiy tushunchasi bo'lgani uchun talabalar ushbu tushunchaga oid qoidalarni bilishi kerak.

Kompozitsiya kursi talabalarda obrazli o'ylashni, fantaziyani, didning takomillashuvini hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, dizaynerlik faoliyati mobaynida korxonalarda liboslarni badiiy loyihalash, milliy moda va uslub yaratishda kasbiy bilim va ko'nikmalarni hosil qiladi.

Ijodiy imtihonning asosiy maqsadi – institutga kiruvchining kasbiy layoqatini, ijodiy qobiliyatini va badiiy tayyorgarlik darajasini, obrazli-konstruktiv tafakkurini hamda yangi modellar eskizlarini ishlab chiqishi ko'nikmalarini aniqlash. Abituriyentning quyidagi bilimlarini va qobiliyatini aniqlashdan iborat:

- shakllarni emotsional va hissiy qabul qilish, ifodali va mantiqiy fikrlash qobiliyati;
- fazoviy va konstruktiv fikrlash mahorati;
- original obraz, g'oyani topa olish, fantaziya, tasavvur qilish qobiliyati;
- shaxsiy mualliflikdagi eskiz va badiiy grafika;
- emotsional ranglar holatini, syujet va tasavvur, ranglar gammasini idrok qilishi va ifodalashi;
- berilgan mavzuning kompozitsiyaviy va rang yechimlarining o'zaro uyg'unligi.

1. 60210400 - Dizayn (poyabzal va aksessuarlar dizayni) ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlar uchun fanlardan ijodiy imtihon dasturi

1.1. “Chizmatasvir” fani bo'yicha.

Imtihonda abituriyentlar gipsli modelni (klassik haykal boshini) naturadan chizmachilik asboblari va ko'rgazmali materiallardan foydalanmagan holda, grafit qalamda bajaradilar.

Chizmatasvir **50x70** formatdagi planshetga tortilgan qog'ozda (vatman) **5 soat** mobaynida bajariladi. Har bir abituriyentning chizmatasvir ishlari bitgandan so'ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash me'zoni asosidagi **93** balli shkala bo'yicha baholanadi.

1. Chizmatasvir bo'yicha imtihon maxsus jihozlangan auditoriyada o'tkaziladi.

2. Auditoriyaga kirishdan avval abituriyent raqam olib mazkur raqamdagi stolga borib joylashadi.

3. Abituriyent amaliy ish bajarish uchun qabul komissiyasi tomonidan **50x70** formatdagi planshetga tortilgan qog'oz muxrlanadi. Har bir abituriyentga imtihon varaqasi rasmiylashtiriladi.

4. Imtihonda qatnashishga imtihon varaqasi va pasport asosida ruxsat beriladi. Imtihonga begona shaxslarning kirishiga yo'l qo'yilmaydi.

5. Vazifalarni berish, ishni bajarish oldidan imtihon oluvchining bajariladigan ish tartibini tushuntirishi, titul varaqasini to'ldirish kabilar ushbu ishni bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt reglamentiga kiradi.

6. Har bir auditoriyada abituriyentlar bilek tanlash asosida bir mavzu tanlaydilar.

Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur jihozlarga ega bo'lishi kerak:

- turli och-to'qlikdagi grafit qalamlar;
- yumshoq o'chirg'ichlar;
- **50x70** hajmdagi qog'oz (vatman) tortilgan planshet;
- qalam ochish uchun ochqich yoki skalpel;

7. Zarur bo'lgan hollarda abituriyentning arizasiga muvofiq buzilgan qog'oz almashtirib berilishi mumkin, bunda dastlabki qog'oz yo'q qilinadi. Yangi berilgan qog'oz ham shtampli bo'lishi lozim. Abituriyent qog'ozni almashtirganda vazifa uchun ajratilgan vaqtga qo'shib bermasligi to'g'risida oldindan ogohlantiriladi.

8. Abituriyentlarga bajargan ishiga imzo, biror bir belgi qo'yish va suratga olish qat'iyon taqiqlanadi.

9. Bajarilgan ish qabul komissiyasiga topshiriladi va ular shifrlangandan so'ng fan komissiyasi tomonidan tasdiqlangan baholash me'zonlariga muvofiq ball tizimida baholanadi. Qo'yilgan ballar so'z bilan ham yoziladi va baholar qog'ozning ish bajarilgan tomonida bo'lishi lozim;

10. Baholar imtihon qaydnomalariga ko'chiriladi. "Chizmatasvir" fani bo'yicha imtihon bahosi natijalari 1-3 kun muddatda institut rasmiy "web-saytida" e'lon qilinadi.

11. Baholangan ishlar apellyatsiya o'tkazish uchun qabul komissiyasida qoladi, (abituriyentlarga qaytarib berilmaydi).

12. Abituriyentlar oliy ta'lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan sanitariya gigiyena qoidalarini so'zsiz bajarishlari shart. Mazkur qoidalarga abituriyentlar tomonidan amal qilmaslik imtihon tartiblarini buzgan hisoblanadi va fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi hamda guruh nazoratchilari tomonidan dalolatnoma tuzilib chetlashtiriladi.

"Chizmatasvir" fani bo'yicha abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Mezonlar	Maksimal ball	Abituriyent to'plagan ball
1	Tasvirni qog'oz planshetga kompozitsion to'g'ri joylashtirish:	10,0	
a)	tasvir qog'oz planshetga kompozitsion to'g'ri	10,0	

	joylashtirilgan		
B)	qisman kompozitsion xatoga yo'l qo'yilgan	5,0	
c)	to'g'ri komponovkaning yo'qligiga	0	
2	Naturaning konstruktiv tuzilishlari va proporsiyalari to'g'ri ko'rsatilganligi	15,0	
a)	naturaning konstruktiv tuzilishlari yengil chiziqlar orqali to'g'ri ko'rsatilgan, talab darajasida	15,0	
B)	naturadagi buyumlarning konstruktiv tuzilishlarini yengil chiziqlar orqali ko'rsatishga harakat qilingan, kamchiliklar mavjud	8,0	
c)	naturadagi buyumlarning konstruktiv tuzilishlari yengil chiziqlar orqali ko'rsatilmagan	4,0	
d)	naturadagi buyumlarning konstruktiv tuzilishlari noto'g'ri bajarilgan	0	
3	Buyumlar nisbatlarini, natura nisbatlari (ko'z, burun, lab) to'g'ri topilganligi	12,0	
a)	buyumlar nisbatlari to'g'ri aniqlangan	12,0	
B)	naturadagi buyumlarning nisbatlarini aniqlashga harakat qilingan, kamchiliklar mavjud	7,0	
c)	tasvirda buyumlar va natura nisbatlari noto'g'ri topilgan	0	
4	Perspektiva qoidalariga amal qilinganligi	12,0	
a)	perspektiva qurilish chiziqlari yengil chiziqlarda to'g'ri ko'rsatilgan	12,0	
B)	perspektiva qurilishi chiziqlarini yengil chiziqlarda ko'rsatishga harakat qilingan, ammo kamchiliklar mavjud	7,0	
c)	perspektiva qoidalariga amal qilinmagan (xato ko'rsatilgan)	0	
5	Soya-yorug' qonuniyatlarini to'liq ifodalash va tus munosabatlarini aniqlash	12,0	
a)	soya – yorug'lik va refleks qonuniyatlariga amal qilingan, ular tasviri shtrixlarda to'g'ri bajarilgan	12,0	
B)	natura sirtidagi va ular atrofidagi soya – yorug'lik va reflekslar chegarasi qalamda shartli topilgan, ammo to'liq bajarilmagan	7,0	
c)	buyumlar sirtidagi va ular atrofidagi soya – yorug'lik va reflekslarni to'g'ri ko'rsatishga harakat qilingan, ammo ular tasvirida kamchiliklar mavjud	4,0	
d)	soya – yorug'lik va refleks qonuniyatlariga umuman amal qilinmagan yoki ular noto'g'ri	0	

	ko'rsatilgan		
6	Naturadagi hajmlari to'g'ri aks ettirilganligi	12,0	
a)	naturadagi buyum hajmlari to'g'ri aks ettirilgan	12,0	
b)	naturadagi hajmlarini to'g'ri ko'rsatishga harakat qilingan, ammo kamchiliklar mavjud	7,0	
c)	naturadagi hajmlarini aks ettirishda jiddiy kamchiliklar mavjud	4,0	
d)	naturadagi hajmlari umuman ko'rsatilmagan	0	
7	Materiallik (gips, mato va b.) to'g'ri ko'rsatilganligi	10,0	
a)	materiallik to'g'ri aks ettirilgan	10,0	
b)	naturaning materiallarini to'g'ri ko'rsatishga harakat qilingan, ammo kamchiliklar mavjud	5,0	
c)	materiallik noto'g'ri ko'rsatilgan	0	
8	Tasvirni yaxlit holatga keltirib ishni grafik jihatdan umumlashtirish va yakunlash	10,0	
a)	tasvir to'liq umumlashtirilgan va yakunlangan	10,0	
b)	tasvir qisman umumlashtirilgan va yakunlangan	5,0	
c)	qo'yilmadagi buyumlarni detallari ustida ishlanmagan, yaxlitlik holatiga keltirilmagan bo'lsa	0	
	Jami	93	

Izoh: Abituriyentlarning natijalarini baholash, ko'rsatgan natijalariga muvofiq 100 (yuz) dan 1 (bir) ulushda baholanadi.

Ushbu talablarning barchasini bajargan abituriyentlar eng yuqori 93 ballga ega bo'ladi.

Ijodiy imtihonlar bo'yicha ijodiy sinovlar o'tkazuvchi komissiya a'zolari mutaxassislik kafedralari professor-o'qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

1.2. "Kompozitsiya" fani bo'yicha

Imtihonda abituriyentlar tomonidan turli texnikada (akvarel, grafika, kollaj, applikatsiya va b.) berilgan mavzu bo'yicha poyabzal va aksessuarlar kompozitsiyasi bajariladi.

Kompozitsiya 50x70 formatdagi planshetga tortilgan qog'ozda (vatman) **5 soat** mobaynida bajariladi. Har bir abituriyentning kompozitsiya ishlari bitgandan so'ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash mezonini asosida maksimal **63**-balli shkala bo'yicha baholanadi.

1. Kompozitsiya bo'yicha imtihon maxsus jihozlangan auditoriyada o'tkaziladi.

2. Auditoriyaga kirishdan avval abituriyent raqam olib mazkur raqamdagi stolga borib joylashadi.

3. Abituriyent amaliy ish bajarish uchun qabul komissiyasi tomonidan 50x70 formatdagi planshetga tortilgan qog'oz muxrlanadi. Har bir abituriyentga imtihon varaqasi rasmiylashtiriladi.

4. Imtihonda qatnashishga imtihon varaqasi va pasport asosida ruxsat beriladi. Imtihonga begona shaxslarning kirishiga yo'l qo'yilmaydi.

5. Vazifalarni berish, ishni bajarish oldidan imtihon oluvchining bajariladigan ish tartibini tushuntirishi, titul varaqasini to'ldirish kabilar ushbu ishni bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt reglamentiga kiradi.

6. Har bir auditoriyada abituriyentlar bilet tanlash asosida bir mavzu tanlaydilar.

Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur jihozlarga ega bo'lishi kerak:

- 50x70 hajmdagi qog'oz (vatman) tortilgan planshet;
- har xil yumshoqlikda grafit va rangli, uchi o'tkirlangan qalamlarga;
- avtomat tarzda ishlaydigan 0,5 va 0,7 mm qalinlikdagi grifellarga ega qalamlar (dozatorlar);

- yumshoq o'chirg'ichlar;
- qalam ochish uchun ochqich yoki skalpel;
- kompozitsiyani rangda bajarish uchun akvarel, guash bo'yoqlari, moy qalam, geleviy ruchkalar va suv uchun idish.

Bundan tashqari kompozitsiyani bajarayotganda abituriyent o'zining turli texnik qobiliyatlariga bog'liq boshqa instrumentlarga ham ega bo'lishi mumkin, lekin quyidagilarga ruxsat etilmaydi:

- moy bo'yoq asosidagi bo'yoqlar va uzoq vaqtni (15 minutdan ortiq) talab etadigan bo'yoqlar;

- maxsus qotish jarayonini talab qiladigan pastel va chizilgan kompozitsiya yengil o'chib ketadigan badiiy materiallardan foydalanish.

7. Zarur bo'lgan hollarda abituriyentning arizasiga muvofiq buzilgan qog'oz almashtirib berilishi mumkin, bunda dastlabki qog'oz yo'q qilinadi. Yangi berilgan qog'oz ham shtampli bo'lishi lozim. Abituriyent qog'ozni almashtirganda vazifa uchun ajratilgan vaqtga qo'shib bermasligi to'g'risida oldindan ogohlantiriladi.

8. Abituriyentlarga bajargan ishiga imzo, biror bir belgi qo'yish va suratga olish qat'iy qat'iy taqiqlanadi.

9. Bajarilgan ish qabul komissiyasiga topshiriladi va ular shifrlangandan so'ng fan komissiyasi tomonidan tasdiqlangan baholash me'zonlariga muvofiq ball tizimida baholanadi. Qo'yilgan ballar so'z bilan ham yoziladi va baholar qog'ozning ish bajarilgan tomonida bo'lishi lozim;

10. Baholar imtihon varaqasi va imtihon qaydnomalariga ko'chiriladi. "Kompozitsiya" fani bo'yicha imtihon bahosi natijalari 1-3 kun muddatda institut rasmiy "web-saytida" e'lon qilinadi.

11. Baholangan ishlar apellyatsiya o'tkazish uchun qabul komissiyasida qoladi, (abituriyentlarga qaytarib berilmaydi).

12. Abituriyentlar oliy ta'lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan sanitariya gigiyena qoidalarini so'zsiz bajarishlari shart. Mazkur qoidalarga abituriyentlar tomonidan amal qilmaslik imtihon tartiblarini buzgan hisoblanadi va fan bo'yicha

imtihon komissiyasi raisi hamda guruh nazoratchilari tomonidan dalolatnoma tuzilib chetlashtiriladi.

**“Kompozitsiya” fanidan imtihon topshiruvchi abituriyentlar
quyidagi shartlarni bajarish lozim:**

- kompozitsiya mavzusi original jihatdan topilganligi, ishning kompozitsion g‘oyaviy mazmundorligi;

- badiiy ifodaning mutaxassislikka mosligi, turli shakllarning kompozitsion jihatdan to‘g‘ri ishlatilganligi;

- chizilgan figuralarning bir-biriga uyg‘unligi, elementlarning to‘g‘ri topilganligi;

- berilgan topshiriqning mazmuni, ma‘nosi to‘liq ochilganligi, bajarilgan ishni ashyoda noziklik bilan ishlanish mahorati, ishning tugatilganligi.

**60210400 - «Dizayn (poyabzal va aksessuarlar dizayni)» ta‘lim yo‘nalishi
kompozitsiya bo‘yicha ijodiy imtihoni uchun mavzular ro‘yxati**

1. Romantik uslubidagi ayollar bashang poyabzali va aksessuarlari.
2. Sport uslubidagi ayollar poyabzali va aksessuarlari.
3. Sport uslubidagi erkaklar poyabzali va aksessuarlari.
4. Klassik uslubidagi ishbilarmon ayollar poyabzali va aksessuarlari.
5. Erkaklar klassik uslubidagi poyabzali va aksessuarlari.
6. Erkaklar dam olish poyabzali va aksessuarlari.
7. Ayollar poyabzali va aksessuarlari.
8. Bolalar poyabzali va aksessuarlari.

**Ijodiy imtihonda “Kompozitsiya” fani bo‘yicha abituriyent tomonidan
bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:**

№	Mezonlar	Maksimal ball	Abituriyent to‘plagan ball
1.	Poyabzallar va aksessuarlar kompozitsiyasini qog‘ozga kompozitsion to‘g‘ri joylashtirish.	10,0	
a)	tasvir qog‘ozda kompozitsion to‘g‘ri joylashtirilgan	10,0	
b)	qisman kompozitsion xatoga yo‘l qo‘yilgan	5,0	
c)	to‘g‘ri komponovkaning yo‘qligiga	0	
2.	Kompozitsiyaning mavzuga mos tuzilganligi, g‘oyaviy yechimi va kreativligi.	13,0	
a)	kompozitsiyaning mavzuga mos tuzilganligi, g‘oyaviy yechimi ifodalanganligi va kreativ yondashuv mavjudligi	13,0	
b)	kompozitsiya mavzuga mos kelganda,	7,0	

	zamonaviy moda yoʻnalishi va dizayn talablariga qisman mos kelganda va kreativ yondashuv mavjudligi		
c)	kompozitsiya mavzuga mos kelmaganda, kreativ yondashuv mavjudmasligi	0	
3.	Tasvirlanayotgan poyabzal, aksessuarlar va kompozitsiya detallarini toʻgʻri proporsiyalarda ifodalanganligi	10,0	
a)	tasvirlanayotgan poyabzal, aksessuarlarni va kompozitsiya detallarini proporsiyalari toʻgʻri topilgan	10,0	
b)	perspektiva va kompozitsiya qoidalariga qisman rioya qilingan, proporsiyalarni aniqlashga harakat qilingan, kamchiliklar mavjud	5,0	
c)	perspektiva va kompozitsiya qoidalariga rioya qilinmagan, proporsiyalari notoʻgʻri topilgan	0	
4	Poyabzallar va aksessuarlar hamda materiallar fakturasini ishlashda rang munosabatlarini toʻgʻti topilganligi	10,0	
a)	poyabzal va aksessuarlar hamda materiallar fakturasini ishlashda rang munosabatlarini toʻgʻri topilganligi, soya – yorugʻlik qonuniyatlariga amal qilingan, materiallar fakturasi koʻrsatilgan	10,0	
b)	rang munosabatlari qisman toʻgʻri topilgan, materiallar fakturasini koʻrsatishga harakat qilingan, ammo ular tasvirida kamchiliklar mavjud	6,0	
c)	rang munosabatlari qisman toʻgʻri topilgan, ammo ular tasvirida kamchiliklar mavjud	4,0	
d)	rang bilan ishlashda soya – yorugʻlik qonuniyatlariga umuman amal qilinmagan yoki ular notoʻgʻri koʻrsatilgan, materiallar fakturasi ifodalanmagan	0	
5	Poyabzallar va aksessuarlar toʻplamining konstruktiv-dekorativ yechimi aniq ifodalanganligi	10,0	
a)	poyabzallar va aksessuarlarda konstruktiv-dekorativ yechimi (chiziqlari, bezaklari, aksessuarlari) toʻliq aks ettirilgan	10,0	
b)	poyabzallar va aksessuarlarda konstruktiv-dekorativ yechimi (chiziqlari, bezaklari, aksessuarlari) qisman koʻrsatilgan	5,0	
c)	poyabzal va aksessuarlarda konstruktiv-	0	

	dekorativ yechimi (chiziqlari, bezaklari, aksessuarlari) umuman ko'rsatilmagan		
6	Poyabzal va aksessuarlar kompozitsiyaning to'liq tugallanganligi	10,0	
a)	poyabzal va aksessuarlar kompozitsiyasi to'liq umumlashtirilgan va yakunlangan	10,0	
b)	poyabzallar va aksessuarlar kompozitsiyasi qisman umumlashtirilgan va yakunlangan	5,0	
c)	Poyabzal va aksessuarlar elementlari ustida ishlanmagan, yaxlitlik holatiga keltirilmagan, poyabzal va aksessuarlar kompozitsiyasi tugallanmagan	0	
	Jami	63	

Izoh: Abituriyentlarning natijalarini baholash, ko'rsatgan natijalariga muvofiq 100 (yuz) dan 1 (bir) ulushda baholanadi.

Ushbu talablarning barchasini bajargan abituriyentlar eng yuqori **63** ballga ega bo'ladi.

Ijodiy imtihonlar bo'yicha ijodiy sinovlar o'tkazuvchi komissiya a'zolari mutaxassislik kafedralari professor-o'qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

2. Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan ijodiy imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Apellyatsiya tartibiga ko'ra arizachining faqat o'z ishini baholanishi doirasidagi e'tirozi qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi.